

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM  
VAZIRLIGI  
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**“PEDAGOGIKA” FAKULTETI**

**«PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA» KAFEDRASI**

**«3-5 YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKURNI  
SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI»**

**mavzusidagi**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajardi:** “Pedagogika va psixologiya”

ta`lim yo`nalishi IV-bosqich talabasi

**R.U.Ro`ziqulov**

**ILMIY RAHBAR:**

**dots. X.Bobomirzayev**

**Bitiruv malakaviy ishi kafedradan dastlabki himoyadan o`tdi.**

\_\_\_\_\_ sonli bayonnomasi « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_ 2019 yil

**NAVOIY 2019**

## MUNDARIJA

**KIRISH.....**

### **I BOB. IJODIY TAFAKKUR MUAMMOSINI O'RGANISHNING TARIXIY ILDIZLARI VA UNING TADQIQ QILINISHINING NAZARIY – PSIXOLOGIK MASALALARI.....**

1.1. SHarq allomalari asarlarida mazkur muammoning ilmiy yoritilishi....

1.2. Xorij psixologlari tadqiqotlarida ijodiy tafakkur muammosining ilmiy talqini.....

1.3. O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida tafakkur muammosining ilmiy talqini.....

1.4. Tafakkurning psixologik tavsifi

### **II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR SHAKLLANGANLIGINING TAJRIBALARDA O'RGANILISHI**

2.1. Ijodiy tafakkurni o'rganuvchi diagnostik metodlarga tavsif

2.2. 3-5 yoshdagi bolalar aqliy ijodiy qobiliyatlarining shakllanganligini aniqlash.

2.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish

2.4. SHakllantiruvchi tajriba natijalari

### **XULOSA VA TAVSIYALAR**

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

## KIRISH

**Bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi.** Har qanday jamiyatning ravnaqi ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy barqarorligini uning fuqarolarining ijodiy-ahloqiy salohiyatini yuksak darajada rivojlanganligiga bog'liq. Zero jamiyatning ma'naviy yangilanishida ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishda jahon hamjamiyatiga qo'shilishini ta'minlaydigan, demokratik xuquqiy davlat qurish kadrlar tayyorlashning milliy masalasi ham O'zbekiston Respublikasining prezidenti SH.M.Mirziyoev «inson uning har tomonlama kamol topishi va farovonligi, shaxs manfaatlarini ro'yobga chiqarishning sharoitlarini va ta'sirchan mexanizmlarini yaratish eskirgan tafakkur va ijtimoiy xulq-atvorning andozalarini o'zgartirish respublikada amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy maqsadi va harakatlantiruvchi kuchidir» deb juda to'g'ri aytgan. Chunki xalqning boy ijodiy merosi va umuminsoniy qadriyatlari asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot fan-texnika va texnologiyalarning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tuzilishini shakllantirish O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biri bo'lib qoldi.

«Maqsadlarimizga erishish – deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoev, - yangi demokratik jamiyatni qurish, islohatlarning taqdiri qanday ijodiy kuchlarga egaligimizga yoshlarimiz qanday madaniy va professional saviyaga erishganligiga qanday ideallarga e'tiqod qilishga ma'naviy jihatdan qanchalik boyishiga bog'liqdir».

Bu maqsadga erishish umumiy demokratik intilishlar jarayoni jamiyatni erkinlashtirish mamlakatda yangi ijtimoiy – siyosiy muhitni shakllantirish bilan uzviy bog'liqdir. Kadrlar tayyorlash bo'yicha milliy dasturni amaliyotga tadbiiq etish deyiladi: «ma'ruzada hech bir mubolag'asiz strategik maqsadlarimiz farovon qudratli demokratik davlat erkin fuqarolik jamiyatni barpo etishimizning asosi bo'lmog'i lozim».

Erkinlashtirilgan jamiyatni ma'naviy yangilashni birinchi navbatda yosh avlodni ongiga ma'naviy - axloqiy an'analar insonparvarlik va demokratik qadriyatlarni singdirish orqali ta'minlanadi. Ozod, har jihatdan barkamol, yuksak

ma'suliyatli va burch hissiga ega, o'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofida sodir bo'ladigan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondoshadigan, ayni zamonda shaxsning manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan shaxs fuqarolarini voyaga yetkazish uchun qo'shimcha chora tadbirlar majmuasini yuzaga keltirish va hayotga joriy etish hozirgi muhim vazifalardir.

Barkamol avlodni tarbiyalash deganda nafaqat ijodiy balki jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlash ham tushuniladi. YOshlarni hayotda o'z o'rnini topishda axloqiy e'tiqodlarini shakllantirishda ularda olijanoblik va insonparvarlik yuksak sifatlarni tarbiyalashda sog'lom turmush tarzini tashkil qilish lozim. Bolalarning qobiliyatlari va iqtidorini har jihatdan namoyon etish milliy va umuminsoniy idealar va qadriyatlarining ustivorligini ta'minlash shaxs jamiyat va atrof muhitning o'zaro munosabatlarida uyg'unlikka erishuv bola va o'qituvchi o'rtasidagi munosabatni yuqori darajaga olib chiqishga sabab bo'ladi.

Jamiyatni erkinlashtirish jarayoni shaxsning tafakkurini va iqtidorini har jihatdan namoyon etish uchun imkoniyat va shart sharoitlar yaratibgina qolmaydi. Balki insondagi ruhiy ma'naviy ijodiy salohiyatini to'la namoyon bo'lishini talab qiladi.

Bugungi kunda shaxslar o'rtasidagi ijodiy jihatdan mavjud farqlar bilan bir qatorda jiddiy va tashkilotchilik qobiliyatidagi shaxsning umumiy tafakkurlaridagi farqlarga katta e'tibor qaratish lozim. Bu ta'lim sohasidagi ko'pgina masalalarini hal etish uchun muhim ahamiyatga egadir. Bunday masalalar jumlasiga bolalarni fikrlashi va o'qishi ularning ta'limni keyinchalik esa kasbiy va ijtimoiy soxasida rivojlanishi o'z imkoniyatlarini ruyobga chiqarishi, imkoniyatlarini diagnostikasi korreksiyasini kiritish mumkin.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy psixik rivojlanish o'zining jadalligi bilan boshqalardan ajralib turadi. SHuningdek, bilish jarayoni rivojlanishi undagi ijodiy ko'nikmalar ijodiy tafakkurni rivojlantirishga zamin yaratadi. Bu borada bola shaxsida tarbiyachi obrazini ko'rish va uni tadqiqotlar natijasida aniqlashga harakat qildik. SHuningdek, tarbiyachi ta'lim-tarbiya

jarayonida bilim olish orqali ijodiy ko'nikmalarini rivojlantiradi va o'zida maxsus qobiliyatlarni namoyon qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishning maqsadi:** 3-5 yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning psixologik jihatlarini o'rganishdan iborat.

**Bitiruv malakaviy ishning predmeti:** 3-5 yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni shakllantirishning o'ziga xosligi.

**Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti:** 3-5 yoshdagi bolalar.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi.**

- SHaxsda ijodiy qobiliyatlarning shakllanishi tafakkur xususiyatlari va fikrlash jarayonlarining rivojlanishiga bog'liq bo'lishi mumkin.

- Mustaqil ishlash, muammoli vaziyatlar yechimini topishiga o'rganish bola shaxsida ijodiy tafakkurning shakllanishiga turtki bo'lishi mumkin.

**Bitiruv malakaviy ishning vazifalari.**

1. Mavzu yuzasidan psixologik pedagogik adabiyotlar tahlili.
2. Tadqiqot metodikasini tanlash va eksperimental modelini yaratish.
3. Ijodiy tafakkurni shakllantirishga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq etish.
4. Tadqiqot natijalarini miqdor va sifat jihatidan tahlil qilish.
5. Pedagogik-psixologik xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Bitiruv malakaviy ishning metodikasi:**

1. Kuzatish, suhbat.
2. Veksler metodikasi.
3. Ayzenk verbal testi.
4. Raven metodikasi.
5. Ijodiy tafakkurni rivojlantiruvchi eksperiment.

**Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosini** psixologiya fanidagi ongni, faoliyatda rivojlanish tamoyili, xorij psixologlaridan L.S.Vygotskiy, S.Leytis, J.Piaje, o'zbek psixologlaridan E.G'oziyev, B.Qodirovlarning shaxsda ijodiy tafakkurni rivojlantirish masalasiga doir tadqiqotlari, shuningdek, Prezidentimiz SH.M.Mirziyoev asarlaridagi barkamol avlodni kamol toptirish

borasidagi g'oyalari, «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» asos qilib olindi.

**Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati.** Tadqiqotdan olingan natijalarni maktabgacha ta'lim muassasalari amaliyotiga tadbiq etish bevosita bola shaxsi va unda ijodiy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga samarali ta'sir ko'rsatadi. SHuningdek, bolalarning ijodiy tafakkuriga qay tarzda ta'sir ko'rsatish samaradorligini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

**Bitiruv malakaviy ishning nazariy ahamiyati.** O'rganilgan ilmiy ma'lumotlar va tadqiqot natijalari "YOsh davrlari psixologiyasi", "Pedagogik psixologiya" fanlarining yangi manbalar bilan boyishiga olib keladi. Bola shaxsi, ijodiy tafakkur, ta'lim jarayoni uyg'unligi borasidagi yangi fikr g'oyalar yuzaga keladi.

**Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi.**

1. Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy tafakkurni rivojlanish ko'rsatgichi aniqlandi.

2. Ijodiy tafakkur va yosh xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik tadqiq qilindi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, ikkita bob, 8 ta paragraf, umumiy xulosalar va tavsiyalar, 50 nomdagi foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

# **I BOB. IJODIY TAFAKKUR MUAMMOSINI O'RGANISHNING TARIXIY ILDIZLARI VA UNING TADQIQ QILINISHINING NAZARIY – PSIXOLOGIK MASALALARI**

## **1.2. SHarq allomalari asarlarida mazkur muammoning ilmiy yoritilishi**

SHarq allomalarining ilmiy merosida shaxsning shakllanishi, aqlan va jismonan kamol topishi masalasi atroflicha tahlil qilingan. Jumladan, yirik allomalarimizdan Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino asarlarida va boshqalar tomonidan jamiyatda insonlar va ularni tarbiyalash yo'llari, ta'lim – tarbiya berish orqali ijodiy salohiyatlarni rivojlantirish masalasi dolzarbligi bilan belgilanib kelingan. Beruniyning bilish to'g'risidagi ta'limoti uning durdona asrlarini tadqiq etuvchilar e'tiborini o'ziga jalb etadi.

Kishilarni haqiqiy bilimlarini egallashi uchun bo'lgan hususiyatlardan birini tashkil etadi. Beruniy bilimlarni o'rganish yo'li bilan qabul qilinishi kishilarning bilmagan narsasini bilishga muhtoj bo'lganligi uchun ham bilim olishga kirishganlari haqida ishlarni dalillar asosida fikr yuritgan. Bilim berishda bolaga nutq madaniyatini doimo singdirish, xushmuomala bo'lishi uni shod –xurram o'sishiga, bilim olishiga qiziqtirish, ilmli bo'lish san'atini tug'diradi.

Bola tug'ilgandan, ya'ni dastlabki kunlaridan boshlab tashqi dunyodagi narsalar bilan tanisha boshlaydi. Uning ongida dastlabki tushunchalar paydo bo'ladi. Bu hol narsalarning qonuniyatlarini bilib oladi, degan gap emas balki bolada jo'n va sodda bilimlar hosil bo'ladi oila va atrofdan olgan bu tasavvurlar bolaning bilimi, bolaning taraqqiyotini o'stirib boradi. Beruniy zamonida bolalar ko'pincha oilada maxsus maktablarda ta'lim tarbiya olishardi. Beruniy ta'kidlaganidek, bolani bilimi soddadan murakkabga qarab boradi, bu ilk yoshlikdan ( 10-12 yoshlar) boshlanadi.

Beruniy ilmi zamon vaqtsiz hosil bo'ldi desa bunda u kishilardagi tug'ma qobiliyatni, tug'ma iste'dodni nazarda tutgan. SHuningdek, olim ta'lim – tarbiyada irsiyat ya'ni ota –onadan o'tadigan biologik «meros» ga alohida e'tibor bergan.

Beruniy ilk yoshidagi noyob qobiliyatlarni miya asab tuzilishi xususiyatlari bilan belgilaydi. Lekin bunday alomatli kishilar mashhur shaxs bo'ldi degan ma'noni bermaydi. Hamma narsani keyinchalik olib boriladigan ta'lim – tarbiya hal qiladi. YAxshi me'yorli ta'lim-tarbiya natijasida ba'zi hollarda qobiliyatli bolalar o'sib ulg'ayib u yoki bu sohada iste'dodli kishilar bo'lib yetishadilar.

Ta'lim – tarbiya berishini e'tirof etgan Beruniy bolalikdagi yarqirab ko'ringan noyob qobiliyatlar yosh o'tishi bilan so'nishi ham mumkinligi haqida hech narsa aytmaydi. Tug'ma qobiliyatni nazariyasiga nisbatan faqat Beruniy emas balki o'sha zamon fani yuqoridagi kabi xulosada edi. Lekin qobiliyatli, iste'dodli kishilar shu xislatlarni ro'yobga chiqarishlari uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo'lib, so'ng mehnat qilishlari kerak. SHundagina o'sha iqtidor rivojlana boradi. Aks holda qobiliyatlar so'nishi ham mumkin, bu masala hozir ham munozaralidir. CHunki qobiliyati jihatidan o'z tengdoshlaridan ustun bo'lgan bola ba'zan orqada qolishi yoki tengdoshlaridan o'zib keta olmasligi mumkin. Tug'ma qobiliyat haqida gapirganda, uning rivojlanishi uchun mashaqqatli mehnatga, fanga, bilimlarga ijodiy yondoshish va uning uchun ajoyib tug'ilgan shart –sharait yaratilmog'i lozim.

Buyuk mutafakkir olim Abdurahmon Jomiy bola dunyoqarashining kamol topishida maktab va muallimning roliga katta baho beradi. Uning fikriga qaraganda, muallim aqlli, adolatli o'zida barcha yuksak fazilatlarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Jomiy donolik bilimdonlik va ilm ma'rifatni maktab haqiqiy olimlarning jamiyat uchun foydasi haqida gapirar ekan, ayni vaqtda o'zini bilimdon qilib ko'rsatishga harakat qilgan. Olimda esa jaholat va nodonlik botqog'iga botgan voizlar, zohidlar, faqirlar, darvish va shayxlarni qattiq tanqid qiladi. Ularni dangasalikda, riyokorlikda, munofiqlikda va shuhratparastlikda, tekinxo'rlikda, bilimsizlik va savodsizlikda ayblaydi.



Davoniy bolaning umumiy tushunchalarining mohiyatini bilishi faqat aqlning paydo bo'lishi bilan ro'y beradi, deb ta'kidlar ekan, sezgi va aqli orqali tashqi dunyoni bilishi mumkinligini tan oladi. U bola tarbiyasi bilan shug'ullanishi juda nozik ish ekanligini, bola tarbiyasi borasida nihoyatda ehtiyot bo'lishi, xatoga yo'l qo'ymasligi lozimligini aytadi. Chunki bola yoshlikda o'ta ta'sirchan, tez qabul qiluvchi bo'ladi. Lekin fazilatlarni ham, yomon odatni ham farqiga bormasdan qabul qilaveradi. «Bolalarning qalbi, - deb yozadi Davoniy, xuddi naqsh solingan taxtaga o'xshaydi va suratlarni osonlikcha qabul qiladi».

Bola tarbiyasining keyingi davri maktabdan boshlanadi. Muallim aqlli, bola tarbiyasidan yaxshi xabardor bo'lgan yuksak fazilat egasi bo'lishi lozim. Olim talaba bilan muomala o'rtasidagi munosabatga alohida to'xtaladi. Agar ota uning organizmini jismoniy jihatdan tarbiyalashga sababchi bo'lsa, «haqiqatni tan olganda uningcha muallim, ustoz», «ma'naviy padar» hisoblanadi. Agar kishining ruhi o'z badaniga qanchalik yaqin bo'lsa, muallim ham tarbiya borasida ota-onaga yaqin turadi. Davoniy ayniqsa donolik fazilatini chuqur tahlil qiladi. Uning fikricha, inson o'zining ijodiy tafakkurini, ijodiy iste'dodini tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishi lozim:

Birinchisi, zukkolik va zehni o'tkirligini. Zukkolik kishining muayyan masalani tezda hal qila bilishi, undan o'zi kutgan va istagan natijasini ola bilishida ko'rinadi. Bu malakani kasb qilishi kishidan tajriba va harakatchanlikni talab qiladi.

Ikkinchisi, fahm tezligi bo'lib, bu kishining keraksiz va ikkinchi darajali masalalarga ortiqcha to'xtalmasligi, butun diqqatini muhim va zarur masalalarga tez qarata bilishi, boshqacha qilib aytganda, murakkab va chigal masalalar ichidan eng muhimini tanlay bilishi malakasidir.

Uchinchisi, zehn ravshanligidir. Bu biror masalani hech qanday qiyinchiliksiz, oson yo'l bilan ham qilish iste'dodidir.

To'rtinchisi, bilimni tez egallash qobiliyatidir. Kishi ma'lum masalaga butun diqqat e'tiborini qarata olishi va uni hech qanday qarama -qarshiliksiz o'zlashtirishi lozim.

Beshinchisi, masalani chuqur anglashidir. Ikkinchi darajali masalalar hal qilinib, muhimlari qolib ketmasligi uchun har bir masalaga konkret yondoshish uchun hal qilishda ma'lum bir pozitsiyada turish qobiliyatidir.

Oltinchisi, yodlash bo'lib, insonlarning ilgari tasavvuri va his qilgan narsalarini esda saqlashdir.

Ettinchisi, xotira, ilgari olgan, his qilgan narsalaridan lozim bo'lganlarini eslash qobiliyatidir. SHunday qilib, Davoniy kishi yoshlikdan o'z ijodiy tafakkurini o'stirishga, rivojlantirishga harakat qilishi lozim. U haqiqiy baxt-saodatga erishaman desa, yuqorida aytilganlarni egallashi zarur, deb hisoblanadi.

U odamning qobiliyati to'g'risida fikr yuritar ekan, ayrim kishilar ilmning qudratiga ishonmay yuqoridagi fazilatlarni egallamaydilar. Qo'yilgan masalaning mohiyatini yaxshi tushunmay, yosh olimlarni ham to'g'ri yo'ldan adashtirganlar. Davoniy donolik deganda aqlning bilish qudratini, aql yordamida narsa va hodisalarni bilishni nazarda tutganligi ta'kidlanadi.

Farobiy «Baxt saodatga erishuv» to'g'risidagi asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida bayon etgan. Uning ta'kidlashicha avval bilish zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu-olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach tabiiy ilmlarni, tabiiy jismlar tuzilishini, shaklini, osmondagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng umuman jonli tabiat, o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi deydi. Farobiy, inson kamolotiga yolg'iz o'zi erisha olmaydi. U boshqalar bilan aloqada bo'lishi, ularning ko'maklashuvi yoki munosabatlariga muhtoj bo'ladi, deb hisoblaydi.

Ibn Sino «Hay ibn YAqzon», (Uyg'oq o'g'il tirik) asarida ilm-ma'rifatni o'rganishga kirishishi natijasida ko'zi ochilgani, uning natijasida aql (Hay ibn YAqzon) ko'ziga ko'ringani va ilm ham o'sha o'z jamolini namoyon qilganini hikoya qilar ekan, ilmi-aqlni o'lim bilmaydigan uyg'oq, qarimaydigan, yosh, beli bukilmaydigan barvasta nuroniy sifatida tasvirlaydi. Tafakkur qilib zarur bo'lgan va bilishi mumkin bo'lgan narsalarni o'qishga kirishgani bu dunyoda aqlni ishga solib o'zini yomonliklardan chetlashtiradigan turli hususiyatlarni bilib olganligini qayd etadi.

Demak, «Hay ibn YAqzon» mantiq ilmiga bag'ishlangani bilan ham ijodiy tarbiyada katta ahamiyatga ega. SHuningdek, insondagi yomon illatlarni ham bartaraf etishda ilmu fan, ziyoning ahamiyati insondagi aql – tafakkur quvvatining yolg'on illatlaridan qutilishi o'zligini anglash vositasi ekanligi bilan qimmatlidir.

YUsof Xos Hojib o'zining «Qutadg'u bilig» asarida bilimni, buyuk o'quvni ulug' deb ta'riflaydi. CHunki zakovatli inson ulug' bo'ladi, bilimli kishi, buyuk bo'ladi, deb ta'riflaydi. CHunki zakovat insonni ulug'laydi, bilimli kishi buyuk bo'ladi, deb ilmi kishilarni asl toifadagi kishilarga qo'shadi. Olim ezgu ishlarning barchasi ilm tufayli amalga oshirilishi mumkinligini aytadi. O'sha davrdayoq «Bilim hamon osmon sari yo'l ochur» deb bashorat qiladi.

U dunyoda odam paydo bo'libdiki, faqat bilimli kishilargina ezgu ish qilib, adolatli siyosat yurgizib, kelgan deb inson yaratilganidayoq unga bilim o'quv zakovat berilganligi ana shu bilim va zakovati tufayli kishilar razolatdan poklanganligini uqtiradi hatto hukmdorlar ham yurtini, davlatni aql, ilm, zakovat bilan idora etsa el-yurt farovon bo'ladi to'q va tinch hayot kechiradi deydi. U kuch va qurolni aql va bilimdon keyingi ikkinchi o'ringa quyadi.

Kaykovus «Qobusnoma» asarida aql haqida ham fikr bildirib, inson qobiliyatining bir xil emasligini, inson aqlining tug'ma, ya'ni azaliy aql (tabiiy aql) va kasbiy aql, ya'ni muxtasib (o'rganilgan aql) kabilarga bo'lishini bayon etadi. Kaykovus aqli hikma (falsafa) bilan kasbiy aqlni donish ham derlar, deydi Muxtasib aqlni o'rganish mumkin, ammo azaliy aqlni kamol topadi, deb ko'rsatadi. Muxtasib aqlning takomillashib borishini, tabiiy aql ham muxtasib aqlsiz rivojlanishi mumkin emasligini ta'kidlaydi va fikrlari bilan ta'lim – tarbiyaning ahamiyatiga katta e'tibor berib insonning kamolga erishishida ijodiy shakllantirish g'oyasini ilgari suradi.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug'lar ekan, uni mol- dunyodan ham yuqori qo'yadi. “Agar molsizlikdan qashshoq bo'lsang ham aqldan boy bo'lmoqqa sa'y ko'rguzgil. Mol ila boy bo'lgandan aql bilan boy bo'lgan yaxshiroqdur, nedinkim aql bila mol jam etsa bo'lar, ammo mol bilan aql o'rganib

bo'lmas. Bilg'il, aql bir moldirki uni o'g'ri ololmas o'tda yengmas suvga oqmas deb ta'riflar ekan inson odobi ham aqlning belgisi, deb xulosa chiqaradi".

YUqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, shaxsning bilim olishga bo'lgan intilishi, ijodiy qobiliyati tug'ma qobiliyat va individual xususiyatlarga bog'liq ekanligi aniqlandi. SHuningdek, bilim, o'quv, ijod har qanday insonni yuksaklikka, kamolot cho'qqisiga erishtiradi.

## **1.2. Xorij psixologlari tadqiqotlarida ijodiy tafakkur muammosining ilmiy talqini**

Ilmiy psixologik manbalarida qayd qilinishiga ko'ra «Ijodiy tafakkur» lotincha so'zdan olingan bo'lib u odatda «aql idrok anglash tushunish faxmlash» degan ma'noni anglatadi. Ijodiy tafakkur shaxsning muayyan darajada mustaqil barqaror ijodiy qobiliyatlari majmuasi tuzilishidan iborat.

O'z davrida AQSHlik psixolog F.Frimen ijodiy tafakkurni oltita tarkibidan iborat degan g'oyani ilgari suradi va ularning quyidagicha tartibda joylashtirishni ko'rsatib o'tadi:

- sonli operatsiyalarga nisbatan qobiliyatlilik,
- lug'at boyligini ko'lami,
- geometrik shakllar o'rtasidagi o'xshashlik farqli tomonlarini ajratishga nisbatan o'quvchanlik,
- shaxs nutqining tezligi yoki sustligi,
- insonning fikrlashga muloxaza yuritishga nisbatan qobiliyatlarni,
- xotiraning maxsuldorligi yoki noyob xislatligi.

YAna bir salohiyatli psixolog L.Terstoun umumiy ijodiy tafakkurning jabhalarini turlicha tadqiq qilib, ularni umumlashtirib birlamchi ijodiy potentsiallar deb atadi. Muallif yetti xildagi potentsiallar o'zaro farqlashni ta'kidlab o'tgandir;

- insonning hisoblash qobiliyatini ko'rsatgichi,
- og'zaki so'zni ixcham ifodalashning ko'rsatkich nutq yordami bilan tez o'qish hodisasini egalaganligi,

- og'zaki ma'lumotlarni to'la idrok qilish yoki idrok qilmagan so'zlarni tushunish yoki anglash,

- fazoviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yoki shaxsning chamalash qobiliyatlari o'quvchanligi,

- xotiraning mustahkamlash yoki uning barqarorligi,

- fikrlashga mulohaza yuritishga qobiliyatlilik,

- shaxs idrok qilishning tezligi yoki uning sur'ati.

Fransuz psixologi T.Ribo idrok ko'nikmasini kengayishi bilimlarning ko'payishi diqqatni bir vaqtning o'zida bir necha obyektga qarata olish inson ijodiy tafakkuri taraqqiyotga olib keladi va uch bosqichdan iborat bo'lishi mumkin ekanligini ta'kidlaydi:

- shaxs imitatsiyasi yoki uning tashqi taqlidi,

- inson identifikatsiyasi bolaning bilimlarini o'ziga singdirish jarayoni uning shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini o'zlashtirib borishi va boshqalar,

- refleksiya inson o'zini o'zi anglash hamda bo'lg'usi faoliyatini amalga oshirish muayyan rejalar tuzish ularni maqsadga muvofiq va faoliyatga tadbiiq etish imkoniyatlarini tug'ilishi kabilar uchinchi tipida topshiriqni taxlil qilishni rejali tarzda o'tkazish nazarda tutilib uni to'g'ri bajarish shart –sharoitlari ajratib ko'rsatiladi.

Uchinchi tipidan foydalanib ish yuritilganda ijodiy harakatlar xatosiz yangi sharoitga ko'chiriladi.

Ijodiy harakatlarni bosqichma - bosqich shakllantirish nazariyasiga binoan oriyentirlash asosining tiplarini bola topshiriqni bajarishdan oldin amalga oshiriladi. Bolada bevosita topshiriqni bajarish bosqichi boshlandi. Nutq vositasida mulohaza yuritish bosqichi boshlandi. Nutq vositasida muloxaza yuritish moddiy harakatning in'ikosi tariqasida namoyon bo'ladi. Ijodiy harakatlarning keyingi bosqichida ovoz chiqarib mulohaza yuritish ichki (rejaga) ko'chishidan iboratdir. Nihoyat ijodiy harakatlarning oxirgi bosqichi ichki nutq vositasi bilan o'zi uchun «dilda» harakat qilish bilan tavsiflanadi. Oxirgi bosqich mulohaza yuritishning yig'iqligi bilan boshqa bosqichlardan keskin ajratib turadi (rishga kirishdan keyin

harakatning moddiy bosqichi boshlanadi unda o'zlashtirishning zarur bo'lgan bilimlarga taalluqli tasviriy materiallari yoki ularning natural shakli namoyish qilinadi. Navbatdagi bosqichda ijodiy harakatlarni moddiy namunalarga tayanmagan holda ovoz chiqarib mulohaza yuritish.

O'qishga undovchi motivlarni paydo bo'lishiga materiallarni to'la o'zlashtirishga olib keladi. Bolalarning fanlar bo'yicha turli bilimlarni egallab borishi, ijodiy rivojlanishning birinchi bosqichi hisoblanadi. Bilimlar o'z ichiga ilmiy faktlarni qonun va qoidalarni hossa va xususiyatlarni voqea bog'lanishlarni qamrab oladi.

P.YA.Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma - bosqich tarkib topish nazariyasi psixologiyada alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariya L.G.Vygotskiy va A.N. Leont'evlarning g'oyasidan kelib chiqqan bo'lib, inson ontogenezidan rivojlanish jarayonida tashqi harakatlarni asta – sekin ichki ijodiy harakatlarga aylanish jarayoni berilishni nazarda tutiladi. P.YA.Galperin va uning hodimlari tadqiqotlarning ko'rsatishicha dastavval ijodiy xarakterni oriyentirlash asosi aniqlanadi va u uchta tipga ajratiladi. Ijodiy harakatlarini oriyentirlash asosini birinchi tipii mahsulot namunalaridan iborat bo'lib, harakatini qay yo'sinda bajarish to'g'risida yo'llanma berilmaydi.

Sinaluvchi buzib-tuzish yo'li bilan o'zicha harakat qiladi. Ijodiy xarakterlarini oriyentirlash asosining ikkinchi tipida esa berilayotgan material harakatlarini qay usuli bilan aniq bajarish yuzasidan yo'l - yo'riq beriladi. Ijodiy harakatlarning oriyentirlash asosining harakat dasturi tashkil qiladi.

Sobiq sovet psixologiyasining yirik namoyondasi L.S. Vigotskiy ta'kidlanganidek, «bolaning ijodiy rivojlanishi o'zi orqasidan yetaklab borish kerak. SHu sababli bolalar talabalar ijodiy rivojlantirishi psixologiya fanining dolzarb masalasi hisoblanadi. Ta'lim bolalarni bilimlari bilan qurollantirishdan tashqari uning ijodiy jihatdan kamol topishini ham ta'minlashi lozim. Bilim egallash ijodiy rivojlanish tushunchasi o'z ko'lami jihatidan bilimlarni o'zlashtirishdan kengroq ma'noga ega. Bolalarning ijodiy rivojlanishi deganda turli fanlarga doir bilimlarini o'zlashtirish ularning tizimga solish amaliyotda tadbiq etish ta'limiy

usullarini egalash hamda bolalarda yangi shaxs sifatlarini vujudga kelishi nazarda tutiladi. Bilimlarni o'zlashtirish avvalo bolaning o'qishga nisbatan emotsional munosabatiga bog'liq. Uning bilim olishga qiziqishi, chanqoqligi bilan xarakterlanadi.

M.Byuller ijodiy taraqqiyot quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi shart deb hisoblaydi;

- sinkritizm tushunchalarini bir-biridan ajratib olmaslik holati,
- aglyutinizm maktab yoshiga yaqin bolalarda fantaziyaning kuchayish vaqtini noadekvat noto'g'ri idrok qilish har bir obrazlarni muayyan bo'laklariga binoan bir umumlashishiga yaxlitlash birlashtirish,
- xayolot ijodiy xayol yordamida inson o'zi tug'ilib o'sgan vataniga biron bir jihatidan yordam berishi,
- real, realizm ya'ni atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan yaqqol tuzilmani yaratish turmush tajribalariga mumkin qadar yaqinlashib kelishidan iborat fikrlashini ko'rishi singari.

Jahon psixologlari to'plagan ilmiy materiallarni umumlashtirib ijodiy tafakkur muammosi tadqiq qilishda quyidagi omillarga qaratish lozim;

- ijodiy tafakkurning yosh davri xususiyatlariga bog'liqligi,
- jins xususiyatiga va farzand dunyoga kelishi tartibiga aloqadorligi,
- millat etnos va xalqqa taalluqliligi,
- oilaning ijtimoiy - iqtisodiy status bilan uyg'unlashuvi.

D.B Elkonin va V.V.Davidov rahbarligi ostida o'tkazilayotgan tajribalar kichik yoshdagi bolalarning ijodiy rivojlanish zaxiralarini o'rganish va bu zahiralarni ishga solish yo'l va vositalarni o'rganishga bag'ishlangan. Ularning fikrlariga qaraganda maxsus tashkil etilgan ta'lim tizimi natijasida bolalarni abstrakt fikr yuritish darajasi yanada ko'tarilishi mumkin. Tajribalarda nazariy va umumlashtiruvchi xarakterdagi bilimlarning berilishi bolalarga umumiy qonuniyatlardan aniq ko'rinishlarga o'tish imkoniyatini yaratmoqda ya'ni umumiy hollardan xususiy holatlarga o'tish amalga oshirilmoqda.

N.A.Menchinskaya metodiga binoan matematika fanidan kichik yoshdagi bolalarning ijodiy taraqqiyotining aniqlash jarayonida ularning mavjud bilim fondini bilimlarni amalga qo'llash darajasini hamda mantiqiy fikr yuritish holatini belgilashga harakat qiladi. Muallif shu asnoda o'zlashtirish sura'tiga konkret va abstrakt tafakkurning jins aloqasiga analitik – sintetik faoliyat bosqichiga ahamiyat beradi. Bundan tashqari, tadqiqotchi uchun eng muhim o'quvchilar fikrini xususiyan umumiy mulohazaga almashtirish imkoniyati hisoblanadi. Chunki bu siz ijodiy taraqqiyot darajasi to'g'risida fikr yuritish maqsadida muvofiq emas.

Yirik rus psixologlaridan biri ye.N.Kabanova – Myuller bolalar ijodiy taraqqiyotini ta'limiy usullari o'quv ko'nikma malaka va ijodiy faoliyatining yangi sharoitga fanlararo qo'llanishga ko'chishda ularda tarkib topgan ko'nikma, malaka, usul va ijodiy faoliyat shaxsining o'z ijodiy faoliyatini bevosita idora qilishga boshqarishga o'tishda tashqi ta'sir natijasida sinalluvchilarning bilimiga qiziqishi faoliyati qay darajada ekanligini aniqlashda deb talqin qiladi. Bundan tashqari, ye.N.Kabanova Myuller bolalar ijodiy taraqqiyotini silliqlashtirish va bilimlarni «tenglashtirish» metodini ham ishlab chiqadi. Mazkur nazariya bolalardagi mavjud kamchiliklar va tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi. Mazkur yo'l bilan ta'sir o'tkazish bolalar bajarishi zarur bo'lgan topshiriqlarni ularning serqirra faoliyati funksiyasiga aylantirib yuboradi.

T.V.Kudryavsev nazariyasi bo'yicha muammoli vaziyatni umumiy holda tushinib yetish uni tahlil qilish asosida ma'lum ifodaga keltirish ilmiy farazni yaratish vaziyatini isbotlash uni bosqichma -bosqich tekshirib chiqish hamda muammoni yechishning to'g'rilashni aniqlash maqsadida tekshirish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Ushbu metodikani soddalashtirish orqali ishlatilsa turli yoshdagi odamlarning ijodiy taraqqiyoti darajasini aniqlash imkoniyati tug'iladi, lekin bu holatning barchasi muammoli vaziyat deb atalaveradi.

Atoqli psixolog Jan Piaje (1896-1980) murakkab ijodiy tafakkur muammosiga bag'ishlangan nazariyalarni ishlab chiqdi. J.Piajening ijodiy tafakkur nazariyasi ikkita muhim jihatga ajratilgan bo'lib, ijodiy tafakkur funksiyalari hamda ijodiy tafakkurning davrlari ta'limotlarini o'z ichiga qamrab oladi. Ijodiy



tafakkurning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik tartiblik va adaptatsiya moslashish kiritib ular ijodiy tafakkurning funksional invariatsionligi deb yuritiladi. Ijodiy tafakkur faoliyatining tartiblilik deganda sub'ektning ijodiy faollik ko'rsatish jarayonida yaxlit holatning va unga kiruvchi boshqa elementlarning shuningdek ularning barchasi o'zaro munosabatlarini ajrata olish tushuniladi.

Ijodiy tafakkurning adaptatsiyasi o'z navbatini assimilatsiya va akkomadatsiya jarayonlaridan tuziladi. Ushbu nazariyaga binoan assimilatsiya deganda idrok qilish (anglash) mumkin bo'lgan ob'ekt to'g'risidagi tavsifnomalarni tiklash anglashiladi. Akkomadatsiya bu bilishga intiluvchi sube'ktning moddiy borliqning talabalarga moslashish jarayonidir. Anglash mumkin bo'lgan obe'ktning individ tomonidan yaxlit yoki ayrim tavsifnomasini idrok yuz berishi bilan mazkur jarayon yakunlanmaydi boshqa sub'ektning o'zi yakunlanmaydi boshqa sube'ktning o'zi ham bilish faoliyatini ortib borishi natijasida o'zgarib boradi.

Ijodiy tafakkur hukm surishning muhim jihatlarini yoritishda J.Piaje «sxema» terminidan ko'pincha foydalaniladi. Uning nuqtai nazaricha sxema bu bilish tuzilishidan iborat bo'lib bir – biriga o'xshash hatti - harakatlar xususiyati bilan aloqani ifodalashdir.

J.Piaje ijodiy tafakkur taraqqiyotining ichki qonuniyatlarini ochish maqsadida assimilatsiya va akkomadatsiya muvozanati masalasini o'rganadi. O'zaro munosabatini muvozanatga keltirish goh ratsional, gohi irratsional natijalar berish ko'rsatib o'tiladi. Muvozanat ta'lim jarayonida ko'tarilish yoki tushishi qayd etiladi.

J.Piaje ijodiy nazariyasining ikkinchi ta'limoti «ijodiy tafakkur davrlar»i deb yuritiladi. Muallif ijodiy tafakkurni quyidagi rivojlanish pallasiga ajratadi.

- 1) Sensomotor ijodiy tafakkuri(tug'ilgandan to 2 yoshgacha)
- 2) Operatsiyalardan ilgarigi tafakkur davri.(12yoshdan 11 yoshgacha)
- 3) Konkret operatsiyalari davri (7-8 yoshlardan 11-12yoshgacha)
- 4) Formal rasmiy operatsiyalar davri.

Uning fikriga ko'ra, ijodiy tafakkurning o'sishi bolada nutq paydo bo'lishidan ilgari boshlanadi. Ijodiy tafakkurning kurtagi bolaning dastlabki tartibsiz hatti - harakatlarida o'z ifodasini topadi. Keyinchalik maqsadga yo'naltirilgan harakatlar aktinii amalga oshirish natijasida va taxlil qilish yordamida ijodiy tafakkurning genetik ildizini o'rganish uchun muhim imkoniyatlar yaratiladi.

Ijodiy tafakkurning o'sishi inson operatsiyalar tizimi bilan qurollanishdan iborat ekanligi aytib o'tiladi. Ijodiy tafakkurning taraqqiyot pallasida ijodiy harakatlar yig'iq holda bo'ladi. SHuning bilan birga J.Piaje fikriga ko'ra ijodiy tafakkur davrlarining o'zaro o'rin almashishi tafakkur o'sishini bildiradi. Davrlarning ketma – ketligi va o'sishining ichki qonuniyatlarini ifodalaydi.

J.Piajening ijodiy ta'limoti ahamiyatga ega bo'lib unda obe'ktiv «Klinik metod» qo'llanilgan ijodiy tafakkurning genetik ildizi ochib berilgan. Ijodiy tafakkur bilan predmetlar o'rtasida xususiyatlar yoritilgan ijodiy faoliyatda sub'ektning o'zgarib borishi empirik nazariy ma'lumotlar bilan isbotlab berilgan.

N.S.Leytesning tadqiqotida avvalo aql sifatlarini o'z ichiga oluvchi umumiy ijodiy qobiliyatlar odamning nazariy bilim va amaliy faoliyat imkoniyatlarni tavsiflab beradi deb ta'kidlagan.

Inson ijodiy tafakkuri uchun eng muhim narsa shuki atrofimizni o'rab olgan va olamdagi narsa- hodisalar o'rtasidagi bog'lanish va munosabatlarni aks ettirish hamda shu bilan voqelikni ijodiy ravishda qayta o'zgartirish imkonini beradi. N.S.Leytesning ko'rsatib o'tishiga qaraganda oliy nerv faoliyatni xususiyatlarida faollik va o'z-o'zini tartibga solishning ayrim shart-sharoitlari yashiringan bo'lib, bular umumiy ijodiy qobiliyatlarini tarkib toptirishning muhim ichki shartlaridan iboratdir.

YU.A.Samarin ijodiy faoliyatining assotiativ tabiatini sistemalilik tamoyili asosida tekshirar ekan assotsiatsiyalarning tegishli darajaga birlashishi xarakteriga qarab ijodiy faoliyati darajalarini klassifikatsiya qilib chiqadi.

M.A.Menchinskaya o'zining bir guruh xodimlari bilan birga ijodiy taraqqiyot muammosini samarali tadqiq qilib chiqqan. Bu tadqiqotlar

D.N.Bogoyavlenskaya va M.A.Menchinskayalar tomonidan tavsiflab berilgan qoidaga ya'ni ijodiy taraqqiyot hodisalarining ikki kategoriyasi bilan bog'liqligi haqidagi qoidaga asoslanadi.

Birinchidan bilimlar fondi to'plangan bo'lishi lozim, bunga P. P.Blonskiy e'tiborni jalb qilgan edi va quyidagilarni ta'kidlaydi. «Qup-quruq bosh fikr yuritmaydi. U bosh qancha ko'p tajriba va bilimga ega bo'lsa u shu qadar ko'proq fikrlashga qodir bo'ladi» deb o'tilgan. Uning fikricha ijodiy rivojlanish qo'yidagi ko'rsatkich bilan belgilanadi;

- taffakurning mustaqilligi bilan
- o'quv materiallarining o'zlashtirishning tezligi va mustahkamliligi bilan
- standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda ijodiy chamalash tizimi bilan
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish bilan

Aqlning tanqidiy qarashi balandparvoz mulohazalarga moyillikning yo'qligi bilan tavsiflanadi.

N.A. Menchinskaya shu munosabat bilan fikrlash faoliyatini shunday xususiyatlarni chunonchi;

- o'zlashtirishning tezligi yoki sustligi,
- fikrlash jarayonining puxtaligi ya'ni ishni qayta ko'rishni topshiriqlarning o'zgargan sharoitiga moslashishning osonligi yoki qiyinligi,
- tafakkurdagi ko'rgazmali va mavhum komplekslarning mustahkamlash bog'lashini,
- analitik sintetik faoliyatning turli darajasini qarab chiqadi.

AQSH psixologiyasida taraqqiyotni tadqiqot qilish uning tashqi alomatlari va bilimlarni bayon qilish bilan boshlanagan bo'lsada, lekin keyinchalik u o'zining ustivor maqsadini ro'yobga chiqarish yo'nalishga kirib olish imkoniyatiga erishdi. Ana shu boisdan u jahon psixologiyasida yuksak nufuz qozona oldi. Ilg'or g'oyalari bilan taraqqiyparvar yo'nalishga sodiq ekanligini erkparvar xalqlarga namoyish eta bildi va tub ma'noda ilmiy negizga asoslanganligini dalilladi. Psixologiyaning mazkur saxifasida S.Xoll, L.Termin, A.Gezell kabi allomalar ta'limotlarining asoslariga bevosita suyanuvchi muayyan qoidaviy milliy an'analar

mezoni xususiyatini kasb etuvchi manbalar paydo bo'ldi. S.Xollning rahbarligida va uning bevosita ta'sir metodi yordami bilan bolalar o'spirinlar keksa yoshdagilar psixologik rivojlanishi to'g'risida katta hajmdagi ilmiy empirik materiallar to'playdi. Biroq olingan materiallarning qiymati yetarli darajada yuqori emas edi. Chunki tadqiqot metodining o'zi sub'ektiv xususiyatga moyil haqqoniy holatning ochishi imkoniyatidan mahrumdir. Ma'lum varaqaning qaysi ko'rinishi va turidan foydalanganligidan qat'iy nazar insonning murakkab ruhiy kechinmalari, xususiyatlari yuzasidan ishonchli ma'lumotlar yig'ish va ularni tahlil qilish ilmiy xulosalarga kelish mumkin emas. SHunga qaramasdan S.Xollning rekaplutatsiya nazariyasi psixikaning ontogeneziga bag'ishlangan dastlabki ilmiy yondashish bo'lganligi sababli shu fursatdan keng ko'lamda ommaviylashib ketishiga ulgurdi. A.Terminning AQSHda «tez harakatlari»ning ilhomchisi sifatida yetila bordi, natija bolalarning ijodiy qobiliyatlarini tadqiqot qilish va o'qitishning turli metodlari samaradorligini o'lchash ishlari boshlab yuborildi. Muallif tomonidan ijodiy (ijodiy) testlarni ishlab chiqish boshlab yuborildi va muayyan tamoyillarga asoslangan tizimi yaratildi. SHu bilan birga maqsadga erishuv testlariga asos solindi. Bu yo'nalishdagi izlanishning muhim yutuqlari quyidagi sanalar va ma'lumotlarda o'z ifodasini topdi.

1. 1918 yilda Stenford – Bine nomi bilan yuritiluvchi metodika tafakkurni o'rganishning yangi shkalasi sifatida dunyoga keldi.

2. Mazkur shkalasi Amerika sharoitiga moslashtirish uchun Termin tomonidan bolalar tekshirib chiqildi.

3. 1937 va 1960 yillar mobaynida mazkur shkalaning yangi tahrirlari amalga oshirildi.

4. AQSH psixologi D.Veksler tomonidan 1949 yilda yaratilgan intellektni o'lchashning yangi mezoni nafaqat bolalarga balki voyaga yetgan odamlarga ham moslashtirildi.

O'tkazilgan ilmiy tekshirishlar oldiga quyilgan vazifalar umumiy bo'lib ular ikkita maqsadni amalga oshirishga mo'ljallangandir.

- a) inson qobiliyatini ommalashtirishda to'g'ri taqsimlashning egri chizig'i,

b) o'zaro munosabatlar, bog'liqliklar ta'sir ko'rsatish, korrelyatsiyasini aniqlash xususiyatlari va boshqalar.

AQSH tadqiqotchilari ijodiy tafakkur mezonlarining yosh xususiyatiga jinsga bolani tug'ilishi tartibiga uning irqiga oilaning ijtimoiy - iqtisodiy mavqeiga, ota-onaning ma'lumotiga bog'liqligini o'rganishga intilganlar. Yangidan yangi testlarni yaratilishining turtkisi vazifasini klinik psixologiya motivatsiyasining ahamiyati, shaxs xususiyatlarining bilimlarini o'zlashtirishga ta'siri test savollarining qo'yilishi va ularning bola tomonidan tushunilishi, test natijalaridan qoniqish va samaradorlik omillarini bajaradi. Bularning barchasi proyektiv testlar TAT (tematik operatsion testi) Rorshax testi, Qo'g'irchoq o'yinlari tizimining paydo bo'lishiga muhim negiz yaratdi. Ayniqsa A.Gezellning to 1961 yilgacha o'tkazgan ilmiy tadqiqotlari o'zining serqirraligi bilan muhim hissa bo'lib qo'shildi. Uning vafotidan keyin ushbu tadqiqot markazi «bola rivojlanishining Gezell instituti» deb nomlanadi.

A.Gezell rahbarligida olib borilgan ilmiy ishlar qo'yidagi yo'nalishlarga aloqadordir;

- tug'ilganidan to o'spirinlik davrigacha bosqinchi diagnostika qilish tizimini yaratish,

- odamlar xarakatining faolligini mo'tadil va qusurli holatlarining qiyosiy tavsifi va tahlili ,

- bola ijtimoiy muloqotga moslashish hatti-harakatlarining xususiyatlari.

A. Gezellning tadqiqot markazida odamlarni kundalang va longityud metodlardan foydalangan holda tekshirish va o'rgatish yo'lga quyilgan.

Birinchiidan, tekshiriluvchilarning tug'ilganidan tortib to o'spirinlik davrigacha muddat oralig'idan psixologik rivojlanishi o'rganilgan, ikkinchiidan bir xil va ikki xil jinsni egizaklar tekshirilgan, uchinchiidan jismoniy yetilish bilan ijodiy rivojlanish o'rtasidagi munosabat va o'zaro bog'liqlik tadqiq qilingan to'rtinchiidan hissiy tarbiyada ko'zi ojiz bolalarning psixologik jihatidan rivojlanishi aniqlangan beshinchiidan barcha tajribalar izlanishlar knetik jarayon va

sharoitda amalga oshirilgan oltinchidan tajribalarda ko'ndalang keskin metodi ham unumli qo'lanilgan.

XX asrning 60-yillarida bolalarning ijodiy tafakkurga bag'ishlangan qator tadqiqot ishlari o'tkazildi. Ular ichida D.J. Gilford va E.Torrens tomonidan olib borilgan tajribalar alohida ahamiyat kasb etadi. Ular o'zlarining izlanishlariga asos qilib P.Terminning «iste'dod va ijodiy tafakkurning yuksak ko'rstagichi» nazariyasini tanlagan edilar. Mualliflar ijodiy tafakkur ko'rsatgichi bilan iste'dod o'rtasidagi tafovutlar ularning o'ziga xosligi yuzasidan tajribalar o'tkazilib muhim ahamiyatga molik ma'lumotlar to'pladilar. Olingan natijalarning tahliliga ko'ra iste'dodli bolalarning ijodiy tafakkurning ko'rsatgichi yuqori ijodiy tafakkur darajasi yuksak odamlar esa iste'dodli bo'lishi shart emasligi isbotlangan. D.J.Gilford tafakkurning konvergent va divergent turlarini ijodiy kreativ yondashish nuqtai nazaridan o'rganib ularning inson taraqqiyotidagi rolini ko'rsatib beradi.

Ana shu ilmiy izlanishlar ijodiy tafakkur testlari yuzaga chiqadi va ular tadqiqot vositasining sarasi qatorida munosib joy egallaydi. E.Torrens va uning shogirdlari tomonidan to'plangan ma'lumotlarning ko'rsatishicha ijodiy qobiliyat bilan ijodiy tafakkur koeffitsenti o'rtasidagi munosabat yagona shunday ko'rinishni vujudga keltiradi. Iste'dodli odamlarning ijodiy qobiliyati yuksak bo'lishiga qaramasdan ularning yetmish foizidan ijodiy tafakkur ko'rsatgichi quyi darajadadir. Ijodiy qobiliyatning barqarorligini insonning ma'lumotlilik darajasiga ijodiy tafakkurni o'lchash metodiga bog'liq emasligiga asoslanadi. Ijodiy tafakkurning ijodiy qobiliyat bilan munosabatini tekshirishi yordamida iste'dodli odamlarning shaxsiy xarakterologik xususiyatlari aniqlangan unda sinaluvchiga bevosita ta'sir etuvchi muhitning omillari (jinsiy rivojlanishi) ijtimoiy va madaniy omillari ochib berilgan. Tadqiqotchilar ijodiylik va uning ko'rsatkichlarini izchil ravishda tekshirish uchun avval 4 va 5 yil oralig'ida keyinchalik esa 9 va 13,17 yil vaqt o'tkazib tajribalar o'tkazganlar buning natijasida ijtimoiy va biologik omillarning o'zgarishi ko'tarilishi yoki pasayishiga oid ma'lumotlar to'plaganlar. Ijodiylik (kreativ) ko'rsatkichlari quyi dalillarga bog'liq ekanligini aniqlanadi.

1. Muvofiqligiga erishish uchun yo'naltirishga.
2. Xatti-harakatda odatiy malakalarga stereotiplarga kelishuvchanlikka asoslanishga.
3. Sinaluvchilar tomonidan savollar berishdan qo'rqishga.
4. Jinsiy tafovutlardagi irsiy alomatlarini qayta baholashga.
5. Ijodiylikning rivojini sekinlashtiruvchi faoliyatlar ayniqsa, jiddiy faoliyat o'yin ko'ngil ochish turlarini o'zaro qarama - qarshi qo'yilgan.
6. Zukkolik javoblari va teran mulohazalarni mukofotlashga.
7. Tajribada sinaluvchilar o'rtasida musobaqa uyushtirishga.
8. Ijodiylikni uyushtiruvchi yo'l va vositalardan foydalanishga.
9. Ijodiy tafakkurni mashqlantirish, treninglarga shuningdek aqlni tanlash mashqlariga va hokazo.

E.Torrens Terminning ilmiy qarashlariga qo'shimcha sifatida iste'dod bilan shaxsning ijodiy tafakkur genezisi o'rtasidagi bog'liqlik jarayonini kiritadi: qat'iyatlilik maqsadga yo'nalganlik o'z kuchiga ishonch, munosabatli kechinmalarga beriluvchanlik, dilkashlik, do'stonalik, qalbdan intiluvchanlik va boshqalar E.Torrensning fikricha iste'dodli odamlar o'zlarining mana bunday xususiyatlari bilan ajratib turadilar:

- o'zini o'zi anglashning yorqin namoyon bo'lishi,
- tashqi qo'zg'aluvchilarga reaktivligi,
- konformizmga begonalik va bog'liqlik bo'la olmasligi,
- hissiy barqonuniylik shijoatga berilmaslik.

YUqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, shaxs ijodiy tafakkuri va ijodiy qobiliyatlarni takomillashishida ma'lum o'xshashlik va bog'liqlik mavjud.

Xorij psixologlari tomonidan shaxsning ijodiy tafakkur masalalarining o'rganuvchi mezonlari ko'rsatib o'tiladi. Bu muammoni turli tomonlariga e'tiborini qaratishni talab qiladi.

### **1.3.O'zbekiston psixologlari tadqiqotlarida tafakkur muammosining ilmiy talqini**

Ma'lumki, kishilarning bilim olish ehtiyojlari o'zaro bir –birlaridan farq qiladi. Bo'ladigan bola boshidan ma'lum deganlaridek ba'zan bolalar juda yoshligidanoq o'z tengqurlaridan o'z zukkoliklari bilan hozirjavobliklari bilan keskin farq qiladilar. Ilmiy jihatdan yondoshilganda har xil bolalarning mavjudligi maktablarda har xil metodik uslublar bilan har bir bolaning o'zigagina xos quvvat va imkoniyatlaridan foydalana oladigan va ularga rivojlanuvchi ta'sir qila oladigan tadqiqotlarni talab qiladi. Respublikamizda tafakkur muammosi keng atroflicha o'rganilib kelinmoqda. Ayniqsa bu sohani samarali rivojlanishiga M.G. Davletshin o'zining munosib hissasini qo'shib kelmoqda. Professor M.G. Davletshinning aynan bolalarda tafakkurni shakllantirishi va bu jarayonda shaxsda ro'y beradigan turli jihatlarni atroflicha yoritishga harakat qiladi. Uning shogirdlari tomonidan tafakkur va kasbiy qobiliyatlar shaxsning bilish faolligidagi qobiliyatlar masalasi o'rganilgan.

SHuningdek, Professor E.G'oziyev tomonidan o'quv faolligini tarkib topishi rivojlanishi va unda tafakkur masalasiga asosiy e'tibor berib o'quv faolligi jarayondagi va barcha davrlarda tafakkur masalasini o'rganib chiqqan. Muammolar yuzasidan tadqiqot ishlar olib borilib shaxsning kamolotida ijodiy rivojlanishning atroflicha tahlil qilinadi.

Professor B.R.Qodirov tomonidan ijodiy tafakkur muammosining psixofiziologik masalalari tadqiq qilindi. Bunga ko'ra shaxsiy qobiliyatlarni rivojlanishi tug'ma irsiy xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib qolmasdan uning nerv sistemasi tizimiga bog'liqligi o'rganildi. SHuningdek, oliy asab tizimi va tafakkurning o'zaro munosabatligi tadqiq qilingan.

Tafakkur muammosini o'rganishga qaratilgan tadqiqot Z.T.Nishonova tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarida aks etgan. Mualliflar bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlanishi aynan ta'lim jarayonida kechishi va bu shaxsdagi bilishi jarayonlaridan bo'lgan tafakkur masalasi bilan bog'liqligi ko'rsatib o'tgan.



YUqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan olimlar tomonidan tafakkur masalasi tadqiq etib kelinmoqda.

SH.Adizovanning ilmiy ishlarida yuqori sinf bolalarida o'quv ko'nikma va malakalarning takomillashuvi ko'p jihatidan umumlashgan ta'limiy usullarni egallash, ularni amaliyotda qo'llash yangi sharoitga ko'chirish o'quvchanligiga bog'liq.

O'quvchanlik rivojlanishi esa yaxlit tizimni vujudga keltiruvchi, ularning hukm surishini ta'minlovchi, o'zaro ta'sir negiziga qurilgan o'quv faoliyatni boshqarishning tarkibiy qismlari kursatadigan ta'sirini o'rganish va boshqa yo'nalishlarda tadqiqot ishlari olib borgan.

M.Boboxonova tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarida bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishlarini yuzaga keltiruvchi obe'ktiv va sub'ektiv omillar atroflicha tadqiq qilib so'nggi yillarda iste'dodli bolalar psixologiyasi va psixodiagnostikasini o'rganishga bag'ishlangan.

Psixolog M.Maxsudova tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda qishloq maktablarida ta'lim olayotgan boshlang'ich sinf bolalarining bilimga bo'lgan qiziqishlari tadqiq qilingan. Muallif muammoni o'rganishga shaxsni tug'ma xususiyatlari va iqtidorli bolalarning psixologik xususiyatlari o'rtasidan o'zaro munosabat atroflicha tahlil qilingan.

Psixolog Z. YAkubovanning asosiy tadqiqot ishlari tafakkur masalasiga bag'ishlangan bo'lib uning asosiy ilmiy yo'nalishlari - iqtidorli bolalarning ijtimoiy – psixologik xususiyatlarini o'rganish, xususan shaxsning ijtimoiy yo'nalganligi va katta maktab yoshidagi bolalarning matematik qobiliyatlarini rivojlantirishning nisbatlari tahlil qilingan.

Professor B.R.Qodirovning asosiy yo'nalishi umumiy psixologiyaning differensial psixofiziologiya sohasiga taalluqli bo'lib, ishlarda ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan bolalarning faoliyat yo'nalishlari layoqat va birlamchi qobiliyatlarining miya mexanizmlari o'rganildi. YOshlarning u yoki bu faoliyat yo'nalishlarini tanlashlari elektro enseofalografik usullar bilan neyrofiziologik jihatlar tadqiq qilindi. Olingan ma'lumotlar asosida O'zbekiston sharoitida o'sha

zehnli, ijodiy zakovat saviyasi yuqori darajada rivojlangan bola yoshlarni saralash va litsey, kollejlarda oliy o'quv yurtlariga tavsiya etish maqsadida maxsus psixologik (zehn) testlari majmuasini yaratish, ijtimoiy buyurtma sifatida qabul qilindi.

Bugungi kunda zehn testlari majmuasi shakllantirilib 100000 kishidan olingan ma'lumotlardan yosh va jinslarga taalluqli 96 guruh uchun standart normalari yaratildi. Maxsus skaner dasturlarining javob varaqalarini avtomatik ravishda o'qiydigan har bir tekshiruvchi yoshi va jinsiga nisbatan ijodiy tafakkur saviyasini xalqaro birlik IQ da belgilab beriladigan dasturlari yaratildi. Ushbu ilmiy-psixologik texnologik jarayon bir yilda 30-40ming bolani zehn testlaridan o'tkazish ma'lumotlarini qayta ishlash va saralash imkoniyatini beradi.

SHunday qilib, respublikamizning keng psixologlari jamoasi tomonidan ijodiy tafakkur, shaxsning ijodiy tarqqiyot masalalari hozirgi kungacha amaliy nazariy jihatdan o'rganib kelinmoqda.

#### **1.4. Tafakkurning psixologik tavsifi**

Psixik hodisalar psixik holatlarni, psixik jarayonlarni va psixik xususiyatlarni o'z ichiga oladi. Bularning barchasi tirik organizmning tashqi olamni u yoki bu darajada aks ettirishi bilan bog'liq bo'lganligi uchun ham bir so'z bilan ruhiy, psixik hodisalar deb ataladi. Psixik hodisalarning Boshlang'ich hisoblangan psixik holatlar deganda tashqi olamni aks ettirish va javob qaytarish xususiyati, mexanizmlari tushuniladi. Masalan, bolalar va kattalarning dunyoni aks ettirishlari, sog'lom yoki betob odamning aks ettirishi, bardam, tetik yoki horg'in, charchagan odamning aks ettirishi sifat xususiyatlari va holatlari bir-biridan farq qiladi. Psixik xususiyatlar deganda odam – sub`ektning betakror, bir-biridan farq qiladigan xususiyatlaritushuniladi. Bunda asosan odamning temperamenti, qobiliyati va xarakteri nazarda tutiladi. Psixik hodisalar ichida psixik jarayonlar yetakchi va asosiy mazmunni kasb etadi. Psixik jarayonlar tashqi olamni ongda aks ettirish, unga javob reaksiyalarini berish bilan bog'liq jarayonlarning barchasini

o`z ichiga oladi. “Psixik jarayonlar ongning o`zida paydo bo`lib, ongning o`zida tugallanadi degan fikrni Sechenov mutlaqo noto`g`ri fikr deb hisoblagan edi”.<sup>1</sup> Psixik hodisa hali yuzaga kelmagan natijadan ham darak beradi.

Sezgi, idrok orqali narsa va hodisalarning sezgi organlari orqaligina bilish mumkin bo`lgan xususiyatlari aks etsa, bu bilan bilish doirasi cheklandi degani emas. Narsa va hodisalar bevosita bilib bo`lmaydigan xususiyatlarga, o`zaro aloqaga, rivojlanish qonuniyatiga ega. Vositali aks ettirish tafakkur jarayonining xususiyalaridan biridir. Tafakkurning yana bir xususiyati - bu voqelikni umumlashtirilgan holda aks ettirilishidir.

Tafakkur voqelikni umumlashtirilgan holda, qonuniy bog`lanishlarni so`z va tajriba vositasida aks ettirishdir. Narsa va hodisalar rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash bilan odam, tabiat va kishilik jamiyati taraqqiyotini boshqarish imkoniyatiga ega bo`ladi.

Odam tafakkuri til bilan chambarchas bog`liqdir. Tafakkur, barcha psixik jarayonlardek, miya faoliyatining natijasidir. Odam fikr yuritayotganda miyada murakkab jarayonlar sodir bo`ladi, miya po`stlog`ida markazlar o`rtasida bog`lanishlar yuzaga keladi. Xilma-xil muvaqqat nerv bog`lanishlari (assotsiatsiyalar)ni hosil qilish miya po`stlog`ining murakkab sintetik faoliyatidir. Fikrlar muvaqqat nerv bog`lanishlari differensirovka qilinishi, ya`ni ayrim nerv bog`lanishlarini mustahkamlashi, boshqalarining tarmoqlanishi natijasida mukammallashadi va aniqlanib boradi. Miya po`stinig bunday faoliyati analitik faoliyat deyiladi.

Tafakkur turlari va aqlning muhim sifatlari. Tafakkurning konkret-amaliy, konkret obrazli, abstrakt turlari bor.<sup>2</sup>

Konkret-amaliy tafakkur narsalar bilan ish bajarish jarayonida ularni bevosita idrok etishga suyanuvchi tafakkur. Masalan, bola o`yinchoq ichini ko`rib, usta priyomnikning uyoq-buyog`ini burab ko`rib so`ng fikrlaydi.

---

<sup>1</sup> G`oziyev E. G`. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.

<sup>2</sup> G`oziyev E. G`. «Umumiy psixologiya» 1-2 tom. Toshkent-2002y.

Konkret obrazli tafakkur tasavvurga tayanadi. Tafakkurning bu turi kichik maktab yoshidagi bolalar uchun xosdir. Lekin katta yoshdagilarda ham uchrab turadi. Masalan, o`qituvchi darsga tayyorlanishda o`z o`quvchilarini ko`z oldiga keltirib, materialni qanday qabul qilishlarini, dars jarayonida qanday shaklni, qachon chizib ko`rsatishni, qaysi ko`rgazmali quroldan qachon, qanday foydalanishni o`ylaydi.

Abstrakt (mavhum) tafakkur - narsalarning mohiyatini aks ettiruvchi va so`zda ifodalovchi tushunchalarga tayanib fikr yuritishdir. Tafakkurning bu turi dastavval har xil nazariy masalalarni yechish bilan bog`liqdir. Lekin u kundalik hayotda ham keng qo`llaniladi.<sup>3</sup> O`smirlik va katta maktab yoshida abstrakt tafakkur tez shakllanadi. (Krugozor - bilim saviyasi).

Hozirgi zamon mutaxassisining ijodiy mehnat qilishi uchun tafakkurning bu turlaridan unumli, mustaqil, tanqidiy foydalanish talab qilinadi.

Shuningdek, ijodiy ishlash uchun fikrning ildamligi, ya`ni vazifalarni konkret sharoitga qarab yecha olish, vazifani hal qilishning yangicha yo`lini topa bilish talab qilinadi.

Tafakkurning bu turlari va xussiyatlari turli odamlarda turlicha bo`lib, aql sifatleri deb ataladi.

“Fikrlash operatsiyalari. Tafakkur faoliyati analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, abstraksiyalash va konkretlashtirish kabi fikrlash operatsiyalari yordamida amalga oshiriladi.

Analiz-masalani fikran qismlarga ajratish, masala shartini tasavvur qilishdir.

Sintez-buning aksi, qismlarni birlashtirish.

Taqqoslash-o`xshash va farqlarini aniqlash. Masalan, biror texnikani dvigatel kuchiga, yonilg`i turiga, bajaradigan ishiga qarab taqqoslash, afzalligini aniqlash mumkin.

Umumlashtirish-umumiy va muhim belgilariga qarab fikran birlashtirish.

Abstraksiyalash-mazkur vaziyatdagi eng muhim bo`lmagan xususiyatlarini e`tiborga olmay, eng asosiy vazifani nazarda tutib fikr yuritish.

---

<sup>3</sup> Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O`zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil

Konkretlashtirish-faqat aynan shu narsa va hodisaga taalluqli sifatlarni topa olish, yuqoridagi operatsiya turlarini yakuniy qismi, ko`rinishi va boshqalarni oydinlashtirish”.<sup>4</sup>

Bulardan tashqari odam fikr yuritishi tushunish, izohlay olish, muhimini ajrata olish singari mantiqiy operatsiyalarga ham suyanadi.

Tafakkur jarayoni tushuncha, hukm, xulosa chiqarish shaqlida ham davom etadi.

Tushuncha-umumiy, yakka, tur, juz`iy bo`ladi.

Hukm-umumiy, juz`iy, yakka bo`ladi.

Muhokama yuritish natijasida bir necha hukmdan yangi hukmni keltirib chiqarish xulosa chiqarish deyiladi. Bu ikki usulda induktiv va deduktiv xulosa chiqarish shaqlari mavjud.

---

<sup>4</sup> Ivanov P.I., Zufarova M. «Umumiy psixologiya» T.: O`zbekiston faylasuflar milliy jamiyati, 2008 yil

## **II BOB. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJODIY TAFAKKUR SHAKLLANGANLIGINING TAJRIBALARDA O'RGANILISHI**

### **2.1. Ijodiy tafakkurni o'rganuvchi diagnostik metodlarga tavsif**

Ijodiy tafakkur tushunchasi psixologiyada ijodiy iste'dod yoki qobiliyat deb yuritiladi. CHet el psixologiyasida qobiliyatni miqdor jihatdan o'lchash uchun uni xarakterlab berish uchun ijodiy tafakkur tushunchasi kiritilgan. O'z davrining yirik psixologlari hisoblangan Kettel, Termin, Spirmen va boshqalar o'tgan asrning oxiri va yigirmanchi asrning boshlarida inson qobiliyati darajasini o'lchash uchun turli xarakterdagi ijodiy testlarni ishlab chiqqanlar. Ularni oldida turgan asosiy vazifa turli ixtisoslar uchun kasb tanlashni amalga oshirgan yoki kasbga yaroqliligini, layoqatliligini aniqlashdan iborat bo'lgan.

Aqliy testlar AQSH, Angliya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Jumladan, maktablarga bolalarni saralashda harbiy xizmatga va havo flotiga kadrlarning rahbarlik lavozimiga loyiqligini aniqlashda ijodiy testlardan foydalaniladi. CHet ellarda ko'pgina o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlariga qabul qilish jarayonida kiruvchilar saviyasini aniqlashda ham testlar tatbiq qilinadi. O'ziri davrda testlar ijodiy tafakkurni o'lchash qobig'idan tashqari chiqib, insonning bilish jarayonlari shaxsning xususiyatlari va xolatlari shuningdek, patologik jihatlarini o'rganishda ishlatilmoqda.

Lekin quyida biz faqat ijodiy testlar yuzasidan muloxaza yuritimiz.

CHet el psixologiyasida kupincha tafakkur tushunchasini qo'llash ko'ra ijodiy tafakkur terminini ishlatishni afzal ko'radilar. Ijodiy tafakkurni testlar yordami bilan aniqlash uchun ijodiy iste'dod koeffitsenti hisoblab chiqiladi va «Intellekt» koeffitsenti ya'ni «IQ» deb belgilanadi.

Testlar odatda so'zlardan (verbal) kuzatishlardan iborat vizual topshiriqdan labirintlar va bosh qotirar masalalardan tuziladi. Angliyada turli yoshdagi

kishilarga mo'ljallangan testlar tizimi ishlab chiqilgandir. Hatto testlardan bevosita maktab ta'lim-tarbiyasi ishlarida foydalaniladi.

Sovet psixologlari tomonidan testlarni ilmiy jihatdan qayta ko'rib chiqib «Ijodiy tafakkur koefitsenti» tushunchasi soxta nazariya ekanligi isbotlandi. O'z-o'zidan ma'lumki testlar batariyasidagi topshiriqlarni yechish to'g'ridan-to'g'ri ijodiy tafakkurga emas balki insonning tajribasi, ko'nikmasi va malakalariga bog'liqdir.

CHet el psixologiyasida ijodiy tafakkur testlar nazariyasi o'z vaqtida sovet psixologiyasi namoyondalari tomonidan xato ekanligi ko'rsatib berildi. Ayniqsa, bu borada atoqli sovet psixologi L.S. Vigotskiyning xizmatlari kattadir. U bolaning ijodiy taraqqiyoti o'z-o'zicha amalga oshmasligini ta'kidlab «Eng yaqin taraqqiyot zonasi» (o'qituvchi yordamida) aktual faoliyat zonasi (mustaqil ravishda) mavjudligini isbotlab, ijodiy taraqqiyot shu ikki faoliyat o'rtasidagi farq bilan aniqlanishini ko'rsatib beradi.

Hozirgi davrda chet el va sovet psixologiyasida puxta ishlab chiqilgan testlar mavjud bo'lib inson ijodiy tafakkurini aniqlash uchun xizmat qilmoqda. Biz ularni ayrimlarini tavsiflab o'tamiz.

Aqlni o'lchashning Veksler shkalasi.

Intellektni tekshirilishining eng keng tarqalgan metodlaridan biri. D.Wechsler (1949) tomonidan ishlab chiqilgan bolalarni intellektini o'lchash shkalasidir. Bu metodikaga 1974 yilda so'ngi marta 5 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalarni tekshirish uchun o'zgartirishlar kiritildi.

Rossiyada birinchi bo'lib Veksler shkalasi V.M. Bexterov nomli Leningrad psixonevrologik ilmiy tadqiqot institutida moslashtirilgan. Metodika B.G. Ananov (1969) maktab psixologlari tomonidan ijodiy tafakkur taraqqiyotini uzoq yillar o'rganishda, jumladan bolalarda psixik taraqqiyotdan chetga chiqishlar va orqada qolishlarini differensial – diagnostika qilishda keng qo'llanilgan.

Veksler shkalasi qo'yidagi subtestlardan tashkil topgan:

- umumiy bilimdonlik subtesti, u nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlardan xabardorlikni tekshiradi. Sinaluvchilarga savollar beriladi va har bir to'g'ri javob ball bilan baholanadi.

- umumiy ziyraklik subtesti iboralarining mazmunini nutq tushunishni, fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy me'yorlarni tushunishni baholaydi. Sinaluvchidan tasvirlangan vaziyatda mumkin bo'lgan yechimlar haqida javob berishi talab qilinadi,

- arifmetik subtest sinaluvchi diqqatining to'planishini ifodalarni tez yechishini tekshiradi. Sinaluvchidan arifmetik masalalar seriyasini og'zaki yechish talab qilinadi. Javobning aniqligiga ketgan vaqtga bog'liq ravishda baho qo'yiladi,

- o'xshashlikni topish subtesti tushunchalarining shakllanganligi, klassifikatsiya, taqqoslash, mavhumlashtirish qobiliyatlari tekshiriladi. 16 juft tushunchalar beriladi. Sinaluvchidan tushunchalar jufti o'rtasidagi umumiylikni topish talab etiladi. Baholanish umumlashtirish darajasiga qarab belgilanadi,

- so'zlar subtesti og'zaki tajribani o'rganishga mo'ljallangan (so'zning ma'nosini aniqlash va tushunish) 40ta so'z ma'nosini tushuntirish uchun beriladi,

- sonlar qatorini takrorlash subtesti qisqa muddatli xotira va diqqatni o'rganishga mo'ljallangan ikki qismdan iborat: sonlarni to'g'ri va teskari tartibda eslab qolish va takrorlashdan iborat. O'ng va teskari takrorlashni baholash qatoridagi to'g'ri esga tushirilgan raqamlar soniga teng subtestning umumiy bahosi o'ng va teskari takrorlanishning umumiy bahosiga teng,

- yetishmaydigan qismni topish subtesti ko'rish idroki xususiyatlarini kuzatuvchanlikni muhim qismlarni farqlay olish qobiliyatini o'rganishga mo'ljallangan. Sinaluvchiga 20 ta rasm ko'rsatiladi. Ularning har birida yetishmaydigan qismni yoki mos emaslikni topish zarur,

- Rasmlar ketma-ketligi subtesti parchalarini mantiqan bir butun qilib birlashtirish vazifasini tushunish hodisalarini oldindan bilish qobiliyatini tekshirishga mo'ljallangan,



- Koss kubiklari testi metod qismlaridan butunni birlashtirish qobiliyatini sensamotor koordinatsiyasini tekshirishga qaratilgan. Sinaluvchi berilgan namunaga qarab har xil rangli kubiklardan shunday figuralar shakllari kerak,

- Figuralar yasash subtesti - yo'nalishiga ko'ra u subtestga o'xshaydi. Sinaluvchiga ma'lum ketma-ketlikda to'rtta figuraning qismlari beriladi. Sinaluvchiga bu qismlardan nima yasash kerakligi aytilmaydi,

- Raqamlarni shifrlash subtesti ko'rish harakat malakalarini o'zlashtirganlik darajasini aniqlashga muljallangan. Topshiriq har bir raqamning tagida katakchaga ularga mos belgini yozishdan iborat,

- Labirintlar subtesti. Bu yo'nalishiga ko'ra ikkinchi subtestga o'xshaydi. 9 ta labirintni o'z ichiga oladi, «chiqish» vaqti hisobga olinadi.

YUqoridagilardan ko'rinib turibdiki, ijodiy tafakkurni o'rganish borasida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

## **2.2. 3-5 yoshdagi bolalar aqliy ijodiy qobiliyatlarining shakllanganligini aniqlash.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy jismoniy rivojlanish jadal suratlarda rivojlanadi. Ayniqsa ulardagi xotira, tafakkur, sezgi, idrok ham amaliy va ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishi ham aynan shu davrda yaqqol ko'zga tashlanadi. SHu maqsadda tadqiqot ishimizda maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy qobiliyatlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratdik. Buning uchun tadqiqot metodikasi sifatida aqlni o'lchash Veksler shkalasi, Ayzenk verbal testi, Raven metodikalaridan foydalandik. Tadqiqot obe'kti sifatida Navoiy shahar 28 maktabgacha ta'lim muassasasidan 3-5 yoshdagi 60 nafari bolalar tanlab olindi. Izoh (tadqiqotda qatnashgan sinaluvchilarni o'zaro solishtirish maqsadida bir guruhni A harfi bilan, ikkinchi guruhni B harfi bilan belgilab olindi).

Sinaluvchilarda tanlab olingan metodikalar o'tkazilgandan so'ng ulardan olingan natijalar miqdor va sifat jihatdan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlilda quyidagi usuldan samarali foydalanildi.

Miqdoriy tahlilni dastlab tadqiqotimizda foydalanilgan Veksler shkalasi bo'yicha amalga oshiriladi. Ma'lumki, Veksler shkalasi 6ta verbal va 5ta noverbal subtestlardan iborat bo'lib sinaluvchilar harakat qilindi.

Miqdoriy tahlil asosida jadval tuzildi. Jadval quyidagi ko'rinishga ega.

**1-jadval**

**VEKSLER shkalasi buyicha natijasilarning taqdimoti A guruh**

№	F.I.	verbal subtestlar						noverbal subtestlar				
		X1	X2	X3	X4	X5	X6	X1	X2	X3	X4	X5
1	A.O'	15	12	14	18	22	13	14	18	9	11	10
2	A.N	17	15	16	21	18	14	17	16	9	8	12
3	A.B	18	14	11	16	12	10	19	13	14	10	7
4	A.A	12	12	15	15	20	8	21	11	11	10	13
5	B.M	13	17	12	13	18	11	20	11	13	16	11
6	B.G	19	14	14	18	17	13	14	15	10	8	7
7	B.U	14	15	16	13	16	15	16	21	8	7	11
8	V.A	15	15	18	12	15	12	18	20	17	11	14
9	A.V	18	14	11	14	13	14	20	11	18	7	13
10	O'.A	19	14	18	10	20	14	17	10	11	12	13
11	D.U	12	16	12	11	12	15	18	10	11	12	10
12	D.M	20	17	12	12	11	10	16	11	12	7	9
13	D.D	21	18	14	13,5	14	9	14	11	18	10	11
14	K.J	22	19	16	14	14	10	11	12	13	14	8
15	o'.M	18	20	18	12,5	15	11	15	14	12	11	8
16	o'.O	19	19	17	13,5	12	11	14	13	10	9	7
17	o'.A	19	18,5	13	12	16	12	16	17	7	8	9
18	Z.S	20	13,2	13	16	16	14	10	11	13	14	7
19	Z.S	21	13	15	17,5	18	14	14	11	10	7	9
20	A.J	19	12	15	19	18	15	11	13	14	10	8
21	A.S	18	8	6	18,2	20	12	9	10	11	13	11
22	S.N	18	11	17	13,8	21	13	11	14	13	14	7
23	S.D	15	10	17	12	12	15	15	10	14	10	7
24	I.J	14	19	19	13	11	12	10	11	14	11	8
25	J.M	19	13	19	14	11	13	10	12	7	11	9
26	T.M	19	13	18	15	13	14	15	13	8	12	11
27	S.M	20	11	15	14,8	18	8	20	14	10	10	8
28	X.O'	22	14	16	13	16	12	21	10	11	8	7
29	S.F	21	15	18	11	15	12	19	16	12	9	8
30	A.S	19	15	18	13,2	18	14	20	18	14	9	9
ja		536	436,	463	429	47	370	46	397	354	309	282

mi			7			2		1				
o'rta ch a		17,8	14,5	15,4	14,3	15,7	12,3	15,3	13,2	11,8	10,3	9,4


2-jadval

**VEKSLER shkalasi buyicha natijalarning taqdimoti B guruh**


№	F.I.O	verbal subtestlar						noverbal subtestlar				
		x1	x2	x3	x4	x5	x6	x1	x2	x3	x4	x5
1	M.F.	14	11	11	12	14	10	11	14	18	9	8
2	X.I.	14	18	14	10	14	10	18	10	8	7	9
3	X.B	20	21	16	18	21	20	19	17	10	9	11
4	CH.A	19	20	18	19	21	13	14	17	10	13	11
5	A.D	18	17	14	14	10	14	18	18	20	10	8
6	YU.O	16	15	11	18	21	19	18	8	7	9	10
7	A.B	14	12	18	20	21	18	17	16	14	10	14
8	Z.S.	13	10	20	16	18	17	19	11	14	10	9
9	I.S	11	15	18	16	19	20	14	12	11	10	8
10	J.S	20	12	19	16	17	18	20	12	13	14	7
11	SH.D	21	22	14	16	15	13	12	10	11	8	9
12	A.D	19	15	15	18	19	20	21	22	14	18	9
13	G.M	16	18	17	18	20	14	12	11	10	8	9
14	T.D	20	21	14	12	11	10	8	11	8	7	9
15	T.SH	20	19	14	15	12	10	14	12	14	15	9
16	M.SH	16	8	18	10	11	14	15	18	10	11	9
17	M.R	18	9	18	17	16	14	15	12	11	10	8
18	Z.A	20	19	16	17	18	18	18	21	10	8	9
19	Q.A	16	18	18	18	19	19	14	22	11	12	16
20	Q.R	19	20	19	19	20	20	11	21	11	14	10
21	R.B	14	21	20	21	13	12	13	12	11	9	8
22	R.B	14	21	21	21	14	13	14	14	8	8	8
23	P.O	12	14	12	20	15	15	14	10	7	9	7
24	P.SH	14	16	13	18	16	16	15	11	9	7	7
25	YU.Z	18	21	11	17	17	18	16	10	10	11	9
26	SH.S H	14	11	14	16	16	17	18	8	13	14	11
27	X.V	12	20	15	18	19	20	19	19	11	16	12
28	E.S	13	15	16	21	20	21	11	11	10	11	14
29	J.S	16	18	18	12	12	12	12	12	11	13	10
30	J.M	20	21	11	10	11	10	21	11	8	10	12

Jam i		485	498	473	505	503	465	461	413	357	320	299
o'rtacha		16,1	16,6	15,7	16,8	16,7	15,5	15,3	13,7	11,9	10,6	9,9

Tadqiqotning jadval ko'rinishiga muvofiq natijalarni yanada yaqqol ko'rinishi uchun diagramma shaklda ifodalandi.



**1-rasm. Verbal shkala buyicha natijalar taqsimoti**



Natijalar sifat jihatidan taxlil qilish A va B guruhlarini o'zaro solishtirish va har bir subtestning mazmun va mohiyatidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Dastlab verbal subtestlar bo'yicha natijalar tahlili o'tkazildi. Umumiy bilimdonlik subtest nisbatan sodda ma'lumotlar va bilimlardan xabardorlikni tekshiradi. Sinaluvchilarga mantiqiy o'ylanadigan savollar varianti berildi. Olingan natijalardan ko'rish mumkinki A va B guruhlar bu vazifani (17,8: 16,7) bir xil darajada bajarishga harakat qilganlar. Bu ulardagi fikrlashdagi mantiqlilik narsa va

hodisalar o'rtasidagi munosabatlar haqidagi tasavvurlar bilan belgilanadi. Umumiy ziyraklik bo'yicha natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki A guruhga nisbatan B guruh sinaluvchilari yuqori ko'rsatgichga ya'ni (14,5: 16,6) ega bo'ldilar bu ularga berilgan iboralarning mazmunini anglay olish tushunish fikrlash qobiliyati jamiyatdagi turli ijtimoiy me'yorlarni tushunish tahlil qilish bilan belgilanadi. Sinaluvchilarda sonli qiymatlarni yechish sonli ifodalar ustida diqqatlarini to'plashlarini tekshirish maqsadida arifmetik subtest bo'yicha topshiriqlar majmuasi taklif qilishdi. Bunga ko'ra A va B guruh sinaluvchilar berilgan topshiriqni aniq va to'g'ri tez yecha olganliklari ma'lum bo'ldi. SHu o'rinda ta'kidlash lozimki sinaluvchilarda o'z fikriga nisbatan ishonch hissi sustligi namoyon bo'ldi.

O'xshashlikni topish subtesti bo'yicha taxlili shuni kursatadiki sinaluvchilarning (14,3: 16,8) tafakkurdagi tushunchalarning mazmun mohiyatini anglash narsa va hodisalar o'rtasidagi bog'liqliklarni taqqoslash klassifikatsiyalash mavhumlashtirish qobiliyatlari shakllanganligidan dalolat beradi. SHuningdek sinaluvchilarda fikrlashdagi umumlashtirish malakalari rivojlanganligi xam tekshiriladi.

Navbatdagi topshiriq og'zaki bajarishga mo'ljallangan bo'lib sinaluvchilar berilgan so'zlarni ma'no mazmuni tushunishi aniqlash kabi vazifa quyiladi. Bu ham bolaning fikrlash, tafakkur, mantiqiy fikr yuritish malakalarini shakllanganlik darajasini o'rganishga qaratilgan.

Sinaluvchilar natijalaridan shuni ko'rish mumkin bu vazifani A guruhga (15,7) nisbatan B guruh sinaluvchilari (16,7) yuqori ko'rsatgichlarga ega bo'lganliklari ma'lum bo'ldi. Bu ulardagi dunyoqarash, mustaqil fikrlashni shakllanganligi bilan belgilanadi.

Sonlar qatorini takrorlash subtesti bo'yicha natijalar deyarli B guruh sinaluvchilarda (15,5) A guruh sinaluvchilarida esa (12,3) ko'rsatgichni tashkil qiladi. Natijalardan ko'rinadiki, sinaluvchilarda diqqat va xotira yoshga bog'liq rivojlangan bo'lib, ularda barqarorligi, ixtiyoriyligi, yaqqolliqi mantiqiyliqi bilan xarakterlanadi.

Noverbal shkala bo'yicha natijalar ham miqdoriy tahlillar asosida amalga oshiriladi.

Etishmaydigan qismni topish bo'yicha sinaluvchilarga taklif qilingan vazifalarni A va B guruh sinaluvchilari (15,3; 15,3) tenglikda bajarganliklari ma'lum bo'ldi. Sinaluvchilardagi ko'rish idroki, xususiyatlarini kuzatuvchanlikni muhim qismlarini farqlay olish qobiliyatini o'rganiga mo'ljallangan.

Rasmlar ketma – ketligi subtesti bo'yicha natijalar tahlilidan ko'rish mumkinki ular topshiriqni bajarishda ma'lum qiyinchiliklarga duch kelganliklari tadqiqot natijalaridan aniqlandi. Tadqiqotga ko'ra sinaluvchilar (13,2; 13,7) ko'rsatgichga ega bo'lganliklari ma'lum bo'ldi. Sinaluvchilarda parchalarni mantiqiy bir butun qilib birlashtirish, vaziyatni tushunish hodisalarni ichki xususiyatini bilish qobiliyati mavjudligi bilan xarakterlanadi. Sinaluvchilarning idrok qilish xususiyatlarini aniqlash maqsadida ularga Koss kubiklari bo'yicha topshiriq taklif qilindi. A va B guruhi sinaluvchilarining (11,8; 11,9) ko'rsatgichga ega bo'lganliklari ma'lum bo'ldi. Topshiriqning asosiy maqsadi ma'lum qismlarida butunni birlashtirish qobiliyatini sensomotor koordinatsiyalarini shakllanganligini aniqlash imkonini beradi.

Raqamlarni shifrlash subtesti bo'yicha natijalar A va B guruh darajalarini ko'rsatadi. Bu sinaluvchilarda ko'rish - harakat malakalarini o'zlashtirilgan darajalarini belgilab beradi. Bu shaxsdagi tafakkur va idrok jarayonlarini o'zaro bog'ligini aniqlash imkonini beradi.


Veksler shkalasi bo'yicha natijalar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki sinaluvchilarda nafaqat ijodiy taraqqiyotning asosini belgilab beruvchi tafakkurni balki shunga muvofiq idrok, xotira, diqqat jarayonlarini rivojlanganlik darajalarini aniqlaydi.

Ijodiy tafakkurni o'rganuvchi navbatdagi metodika Ayzenkning verbal testi bo'lib bu bir nechta murakkabliklarga ega bo'lgan topshiriqlar to'plamidan iborat. SHuningdek, metodika so'ngida uning tahliliy ko'rsatgichlari aniq ifodalangmaganligini inobotga olib biz tahlilini osonlashtirish va qulay bo'lishi uchun past o'rta yuqori mezonlar bilan belgilandi. Bu mezonlar sinaluvchilarning

vazifalarini to'g'ri bajarganligi darajasi bilan tavsiflanadi. Natijalar dastavval jadval ko'rinishida ifodalanadi.

Guruhlar	Mezonlar		
	yuqori	o'rta	past
A guruh	15,8	35,2	49 %
B guruh	16,6	36,6	46,8

**Natijalarning diagramma ko'rinishi .**



### **3-rasm. Mezonlar buyicha natijalar taqsimoti**

Natijalarni tahlilidan ko'rish mumkinki A va B guruh sinaluvchilarining (15,8: 16,6) foizi yuqori darajaga ega ekanliklari ma'lum bo'ldi. Vazifani bajarish jarayonida sinaluvchilarda mustaqil fikrlash tafakkurdagi orginallik aqlning tanqidiyligi, tashabbuskorligi kabi sifatlar xotiraning mantiqiyliqi, diqqatning barqarorligi to'la rivojlanganligidan dalolat beradi.

Sinaluvchilarning 35,2 va 36,6% da vazifani bajarishda mustaqillik, tashabbuskorlik to'la safarbar qilishmaganini shuningdek diqqatning tez-tez ko'chishi tarqoqligi, chalg'ishi ko'zga tashlanadi.



Tadqiqotda qatnashgan sinaluvchilarning deyarli 49% 46,8% vazifalar mohiyatiga to'la tushunmaganliklari turli xil chalkashliklarga yo'l qo'yganliklari oqibatida past ko'rsatgichga ega bo'ldilar. Bu ulardagi tafakkurdagi mustaqillikni yetishmasligi rigidligi bilan belgilanadi.

Natijalar tahlilidan shunday xulosa qilish mumkinki shaxsda tafakkurning rivojlanganligi undagi ijodiy kamolot, qobiliyatning taraqqiyoti bilan belgilanadi.


#### **«Raven matritsasi»**

3-5 yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni shakllanganligini aniqlash maqsadida Raven matritsasi foydalanildi.

Ushbu metodika 3-5 yoshdagi bolalarning ko'rgazmali obrazli tafakkurini o'rganib, uning asosiy vazifalari Raven testidan olingan 10 ta asta – sekin murakkablashib boruvchi Raven matritsalaridan iborat. Bolaga asta – sekin murakkablashib boruvchi 10 qismdan iborat vazifa beriladi. Masalan: Matritsada bo'laklarni joylashishdagi qonuniyatini topish va quyida berilgan 8 ta rasm ichidan shu matritsaga mos keluvchi qismlarni topish kerak. Katta matritsa tuzilishini o'rganib, bayroqchalar ichida bola katta matritsaga joylashishi uchun mantiqan mos keluvchi qismni aniqlash kerak.

Natijalar tahlili topshiriqni bajarish uchun ketgan vaqtga va to'g'ri bajarishiga qarab belgilanadi.

<b>Guruhlar</b>	<b>Rivojlanish darajasi</b>					
	juda yuqori	yuqori	o'rtacha	quyi	juda past	
A guruh	8,9	14,6	34,5	30 %	12 %	
B guruh	9,2	16,7	35,6	26,7	11,8	



**4-rasm. Rivojlanish darajasi buyicha natijalar taqsimoti**

Natijalar tahlilidan shuni ko'rish mumkinki 3-5 yoshida tafakkurning shakllanganligi ijodiy qobiliyatlarni rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi. SHunga muvofiq A va B guruh sinaluvchilarning (8,9; 9,2%) da juda yuqori ya'ni ulardagi tafakkurdagi so'z mantiqiy shakllanganligidan dalolat beradi.

Sinaluvchilarning aksariyat qismi berilgan vazifani to'laqonli bajarmaganliklari tadqiqot natijalaridan aniqlandi. Ularda atrofda narsa va hodisalarni ko'rib idrok qilish ulardagi o'zaro mutanosiblik, farq tafovutlarni anglashda to'siqlarga uchrashishi bilan bog'liq.

Metodikalar yuzasidan umumiy xulosa qiladigan bo'lsak sinaluvchilarda yoshga bog'liq tafakkur, idrok, xotira, diqqat jarayonlari rivojlanganligidan dalolat beradi. Bu esa ulardagi dunyoqarash fikrlash malakalarni atrofga nisbatan munosabatlarida ko'zga tashlanadi.

### **2.3. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirish**

Bolalar tafakkurini rivojlantirish ota-ona, pedagog va tarbiyachi oldidagi muhim vazifalardan biridir. Bolalarda tafakkurning rivoji intensiv ravishda kechadi. Mana shu intensiv taraqqiyotni yanada jadallashtirish mumkin. Buning uchun maxsus psixologik mashqlarni bolalar bilan amalga oshirilsa ulardagi tafakkur va nutq rivoji keskin oshadi. SHuning uchun bolalar tafakkuri rivojiga ijobiy ta'sir qiluvchi psixologik mashqlardan tadqiqotimizda samarali foydalandik .

#### **1-mashq «Savol – javob»**

O'yin uchun material sifatida muammoli mazmunga ega bo'lgan istalgan surat olinadi. O'yin yoshga va vaziyatga bog'liq holda turli xil o'tkaziladi. 3-5 yoshidagilardan ular nimani bilishni istasa o'shani so'rashlik talab qilinadi. Agar katta yoshli kishi savolga javob bermasa u yutqazadi. Bolalar o'yinni o'zaro holi o'ynashi mumkin.

Bola hamma narsani so'rab bo'lgan surat buyicha kichik hikoya tuzish undan so'raldi. SHu o'rinda bola qanday savollarga javob berolgani qandaylariga javob berolmaganiga e'tibor berildi. SHuningdek, savollarning xarakteriga oson - qiynalib javob berishishiga va hokazolarga ham e'tibor beriladi.

#### **2-mashq. «Noma'lum kalit».**

3-5 yoshdagi bolalardan tarbiyachi qo'lga nimani yashirganligini so'radyi. O'sha narsani aniqlash uchun ular savol berishlari mumkin, tarbiyachi javob beradi. Tarbiyachi «savollar noma'lum narsa yashirgan xonaning kaliti» deb tushuntiradi. O'ar bir kalit ma'lum eshikning kaliti: Bunday kalitlar ko'p har bir shunday topshiriqlar (dars davomida besh daqiqalik dam olish sifatida ham o'tsa bo'ladi) ikki uchta «kalit » taklif qilinadi. (masalan «turi» «xususiyatlari» «ta'siri» «o'zgarishi» va xokazolar). Bolalar shu «kalitni so'zlardan» foydalanib savol berishlari zarur: qanday turga taalluqli? Uning qanday xususiyatlari bor?

Maktabgacha yoshdagi bolalarga predmetning o'rniga katta qiziqish bilan qilingan surat yoki fotosurat taklif qilinsa bo'ladi. Muhimi ular tashqi jihatdan qandaydir ma'lum predmet yoki hodisani eslatsin. SHu bilan birgalikda, u qancha

qarama - qarshi detallarni o'zida mujassam tasvirlanganini aniqlash qiyin kechsin. Tushunarsiz ob'ektning tasvirini aniqlashda qo'yidagi savollardan foydalansa bo'ladi:

Bu qanday hodisaga taalluqli?

Nima o'zgaryapti?

Unga nima ta'sir qilyapti?

Qanday xususiyatga ega va hokazo. Mutlaqo notanish ob'ektning tasviri oldingizda turibdi deb tasavvur qiling. Uning nimaligini bilish uchun siz qanday savollar bergan bo'lardingiz.

### **3- mashq «O'xshashlik va farq»**

